

## «Dori-Darmon» aksiyadorlik kompaniyasi 2017 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari

Kompaniyaning bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga kiritilgan asosiy masala – “Dori-Darmon” AKning 2017 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilishdan iborat. Shu munosabat bilan sizlarning e'tiboringizni quyidagi eng muhim masalalarga qaratishni zarur, deb hisoblayman:

### 1. Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishi:

Umumiy tovar aylanmasi 2017 yil 1-choragida 205,5 mlrd. so'mdan (o'tgan yilga nisbatan o'sish 104,8 foiz) iborat bo'lib, ulgurji savdo 141,9 mlrd. so'mni (o'sish 104,3 foiz), chakana savdo 63,6 mlrd. so'mni (o'sish 106,1 foiz) tashkil etdi.

### 2. Hajmiy ko'rsatkichlarning bajarilishi:

Farmatsevtika mahsulotlarining importi 28,0 mln. AQSh dollaridan iborat bo'ldi (o'tgan yilga nisbatan 145,2 foiz). 224,6 ming AQSh dollari miqdoridagi eksport xizmatlari ko'rsatildi. Kooperatsiya birjasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha 20,9 mlrd. so'mlik (rejaga nisbatan 100,01 foiz), boshqa mahalliy korxonalaridan 3,4 mlrd. so'mlik dori vositalari va tibbiy buyumlar xarid qilindi.

Aholi va davolash-profilaktika muassasalariga dori vositalari va tibbiy buyumlarni realizatsiya qilish hajmi 104,8 foizga oshdi; Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalariga realizatsiya qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlarning hajmi 16,4 mlrd.so'mni, imtiyozli bemorlarga – 1,6 mlrd.so'mni tashkil qildi;

Kompaniya tarkibidagi korxonalarda import o'rnini bosuvchi farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2,9 mlrd.so'mga yetkazildi.

Kompaniya va uning bo'linmalari tomonidan hisobot davrida qator tashkilot va muassasalarga jami homiylik yordamlari ko'rsatildi. Jumladan:

- Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 martdagi (03-30-13-sonli) yig'ilishi bayoniga asosan Navro'z umumxalq bayrami arafasida 99,0 mln.so'm miqdoridagi pul mablag'lari o'tkazildi;

- O'zbekiston voleybol federatsiyasiga 45,0 mln.so'm, qilichbozlik federatsiyasiga 27,08 mln so'm, gimnastika federatsiyasiga 15,0 mln.so'm, futbol federatsiyasiga 7,5 mln.so'm, shaxmat federatsiyasiga 4,0 mln. so'm miqdoridagi pul mablag'lari o'tkazildi;

- “Sog'lom avlod uchun” xayriya jamoat fondiga 20,03 mln. so'mlik dori vositalari berildi;

- “Bolalar sportini rivojlantirish” jamg'armasiga 27,0 mln.so'm; sog'liqni saqlash va ijtimoiy muassasalarga 32,703 mln.so'm; “Baynal-Minal” nogironlar futbol klubiga 25,0 mln.so'm; futbol maktablariga 22,0 mln.so'm; nogironlar jamiyatlariga 3,53 mln.so'm; “Mahalla” jamg'armasiga 9,04 mln.so'm, “Nuroni” jamg'armasiga 5,0 mln.so'm, Toshkent shahar xokimiyatiga 9,0 mln.so'm, jismoniy shaxslarga 26,157 mln. so'm miqdoridagi pul mablag'lari o'tkazildi.

### 3. 2017 yil Investitsiya dasturining bajarilishi :

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2016 yildagi PQ-2595- sonli qaroriga binoan Qashqadaryo viloyatida 2,0 mln. AQSh dollari miqdorida dorivor o'simlik va giyohlar asosida ekstraktlar va dorivor moylarni ishlab chiqarish loyihasi rejalashtirilgan bo'lib, qurilish - montaj ishlariga 550,0 mln. so'mlik loyiha hujjatlari tasdiqlandi va 200,0 mln.so'mlik qurilish ishlari bajarildi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.01.2017 yildagi 20 – sonli qarori ijrosini ta'minlash

maqsadida Qashqadaryo viloyatida 5,09 mln. AQSh dollari miqdorida yiliga 4 mln. dona quruq kukun shaklidagi antibiotik ishlab chiqarish loyihasi rejalashtirilgan bo'lib, qurilish ishlarini boshlash uchun 60 sotix yer sotib olish uchun xujjatlar tayyorlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 20.04.2015 yildagi 32 – sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida,

- Surxondaryo viloyati Boysun tumanida 170,0 ming AQSh dollarlik dorivor o'simlik va giyohlar asosida turli hil dori vositalari va biologik faol qo'shimchalarini ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha qurilish ishlari yakunlandi, asbob-uskunalar o'rnatildi va hozirda dori vositalarini davlat ro'yhatidan o'tkazish ishlari olib borilmoqda;

- Namangan shahrida 500,0 ming AQSh dollarlik dorivor moylarini ishlab chiqarish va qadoqlash bo'yicha liniya o'rnatildi, qurilish-montaj ishlari yakunlandi va hozirda dori vositalarini davlat ro'yhatidan o'tkazish ishlari olib borilmoqda;

- Buxoro viloyatida 100,0 ming AQSh dollarlik dorivor o'simliklardan kukun shaklidagi dori vositalarini ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha qurilish ishlari tugagan, pul mablag'lari konvertatsiya qilingandan so'ng asbob-uskunalar keltirilib, montaj ishlari boshlanishi kutilmoqda.

- 2017 yilning 1-choragi davomida kompaniya va uning hududiy bo'linmalari tomonidan jami 30 ta yangi ish o'rinlari yaratildi;

- Hisobot davrida 5 ta qishloq vrachlik punktlari binosida dorixona shaxobchalari tashkil etildi (2017 yilda 70ta ochilishi rejalashtirilgan);

- Jizzax viloyatining Arnasoy tumanida ijtimoiy dorixona o'z faoliyatini boshladi (yil davomida 30 ijtimoiy dorixona tashkil etilishi muljallangan);

- qishloq joylardagi aholini sifatli va arzon narxdagi dori vositalari bilan ta'minlash ishlarini yanada yaxshilash maqsadida "DAMAS" ruzumli avtomobillarda qo'shimcha ravishda 40 ta ko'chma dorixona shaxobchalari tashkil qilish maqsadida "Djeneral Motors O'zbekiston" aksiyadorlik jamiyatiga buyurtma berildi hamda kompaniyaning hududiy bo'linmalari joylardagi avtosalonlarga birlashtirildi.

4. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarning bajarilishi:

Joriy yilning 1-choragi davomida kompaniya nomiga jami 295ta, shu jumladan 159tasi virtual qabulxonadan, 29tasi yagona interaktiv davlati xizmatlari portali orqali, 49tasi kompaniyaning ishonch telefoni, 14tasi kompaniyaning sayti orqali va 44ta yozma va og'zaki murojaatlar kelib tushgan bo'lib, murojaatlardagi masalalar o'z vaqtida ijobiy xal qilindi. Kompaniyaga murojaat qilayotgan fuqarolarni qabul qilish uchun Markaziy dorixona binosida xona ajratilgan.

5. Boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar :

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 1 avgustdagi "2016-2018 yillarda iqtisodiyotning real sektoriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish to'g'risida"gi PQ-2569-sonli Qaroriga asosan "Dori-Darmon" aksiyadorlik kompaniyasiga jami – 1,0 mlrd so'mlik 4 ta loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 1 avgustdagi PQ-2569-sonli Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida, to'rtta loyihani amalga oshirish bo'yicha tarmoq rejalarini ishlab chiqilib tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishildi. Uchta loyiha bo'yicha texnik topshiriq (TZ) me'yoriy hujjati ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi bilan kelishib, ekspert xulosalari olindi;

2016 yilning 12 dekabr kuni PQ-2569-sonli Qarorga kiritilgan 1-loyiha - "Yoqilg'i moylash materiallari sarfini nazorat qilish va avtotransportlarni sputnik tizimi orqali monitoring qilish bo'yicha axborot tizimi" to'liq ishga tushdi;

2017 yilning 1-choragida PQ-2569-sonli Qarorga kiritilgan 2-loyiha – "Kompaniya tizimidagi barcha aksiyadorlik va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarida elektron hujjat aylanish tizimi va kadrlar bo'limi xizmatini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizimini joriy qilish" tizimi test rejimida ishga tushirildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 31 oktyabrdagi "Aholini dori-darmon vositalari va tibbiy

buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PQ 2647-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2017 yilning 1 yanvaridan ulgurji savdo ustamasi 15 % dan, chakana savdo uchun ulgurji narxidan 20% dan ortiq bo'lmagan savdo ustamalari qo'llanilmoqda.

Ro'yxatga kiritilgan mahalliy hamda import dori vositalari va tibbiy buyumlar chegaralangan narxlar asosida qayta baholandi; ro'yxatdagi dori vositalarining chegaralangan narxlari to'g'risidagi ma'lumot hamda dorixonalaridagi majburiy assortimentdagi dorilar ro'yxati kompaniyaning rasmiy veb sayti va dorixonalaridagi iste'molchilar burchagiga joylashtirildi.

Dori-darmon vositalarini chet eldan harid qilish bo'yicha tenderda ishtirok etilib, kompaniya va uning bo'linmalari tomonidan 32,1 mln AQSh dollarlik 140 savdo nomidagi dori vositalari yutib olindi.

Joriy yilning 1 aprel holatiga respublikamiz hududiga 29 nomdagi jami 3,9 mln. AQSh dollarlik dori vositalari keltirildi, bundan 23 nomdagi 1,5 mln. AQSh dollarlik dori vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazildi va sotuvga chiqarildi, 6 nomdagi 2,4 mln. AQSh dollarlik dori vositalari hozirda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilmoqda.

6. Soha bo'yicha mavjud kamchilik va muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar.

Muammolar:

1. Ko'pchilik qishloq vrachlik punktlarida ijtimoiy dorixona shaxobchalari tashkil qilinmagan, buning yana bir sababi tashkil qilinadigan dorixona shaxobchalarida mudir lavozimida ishlash uchun farmatsevt mutaxassislarning yetishmasligidir.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi PQ-2773- sonli qarorining ilovasida dorixona muassasasi tomonidan dori vositasi va tibbiy buyumlarni sotilganida kassa cheki bilan birgalikda tovar cheki berilishi belgilangan. Lekin, QVPlar qoshida tashkil etilgan dorixona shaxobchalarini tovar cheki berishi uchun kompyuter va printerlar bilan ta'minlanishi katta mablag'ni talab etadi.

1. Takliflar:

1. Qishloq vrachlik punkti va qishloq vrachlik punktlari negizida tashkil etilgan poliklinikalarda dorixona shaxobchasi mudiri sifatida o'rta tibbiyot ma'lumotiga ega mutaxassis ishlashi mumkinligi to'g'risida "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 21 moddasiga qo'shimcha kiritish.

2. Qishloq vrachlik punktlari binosida faoliyat yuritayotgan dorixona shaxobchalarini tovar cheki berilishidan ozod qilish.